https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Navoiy davlat universiteti O`zek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti
Toshpulatova Gulhayo

ALISHER NAVOIY “QIT`ALARIDA”NOROZILIK AKTINI YUZAGA KELTIRUVCHI LINGVISTIK VOSITALAR

Annotatsitya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy qit'alarida insoniyat va uning olami, o 'zligini tanish, insonlarga bo'lgan munosabatlari xatti-harakatlari,tarbiyaviy o`gitlari,ichki ,ruhiy noroziliklari haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: qit'a,lingvistik maqsad,pragmatik vazifa,metaforik jihat; Alisher Navoiy qit 'alarida umuminsoniy qadriyatlar, ayb qidirmaslik ,kamtarinlik xususiyatlari.

"Emas oson bu maydon ichra turmoq..." deya adabiyot sahnida ustozlaridan o‘zini quyi pog‘onaga qo‘ygan kamtarin inson- Navoiy tom ma’noda yaratgan mukammal asarlari bilan nafaqat adabiyot balki tilshunoslik sohalari rivoji uchun ham tamal toshini qo‘ydi.Adabiy merosining ko‘p qismini g‘azal , ruboiy,tuyuq janrlari egallagan bo‘lsa ,qit’alar ahamiyati ham ancha salmoqlidir.Quyida esa Navoiy qit’alarida norozilikni keltirib chiqargan atov birliklarning badiiy va lingvistik maqsadi, pragmatik vazifalari ochib berilgan. Bir qancha qit’alar vositasida bularni tahlil qilish mumkin.

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo‘dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

Hayotda shunday kimsalar ham uchrab turadiki, ularga odamiylik sifatlari mutlaqo begona. Siz ularni "odam" qilaman deb har qancha urinmang, befoyda . Axir kuchuk bilan xo'tikni qancha tarbiya qilsangiz ham, ular kelajakda faqat it va eshak bo'ladi xolos. Buyuk mutafakkir bu qit’asi axloqsiz va tarbiyasiz

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

kimsalardan noroziligini ,ularga har qanday aytilgan so‘zlar samarasiz ekanligini aytib o‘tadi.Bu o‘rinda norozilikni yuzaga keltirgan "nokas","nojins"lingvistik birliklarini "kuchuk"va "xo‘duk" sifatlariga metaforik jihatdan singdiradi.Bu jihatdan Navoiyda so‘z qo‘llashga bo‘lgan qisqalik,fikrlar oshkoraligi va maqsad aniq yo‘naltirilganini ko‘rishimiz mumkin

Kimki maxluq xizmatig‘a kamar
Chust etar – yaxshiroq usholsa beli.
Qo‘l qovushturg‘ucha bu avlodur
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
Chun xushomad demakni boshlasa kosh
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

Ushbu qit’ada esa tilyog‘malik va laganbardorlik illatlari qoralanib adib bunday insonlarga o‘z noroziligini "beli sinsin ","qo‘li sinsin ",tili kesilsin " kabi buyruq maylidagi leksik birliklar vositasida ifodalaydi . Navoiy qit’alarida balki barcha asarlarida halollikka,haq so‘zni aytmoqlikka "boshiga qilich kelsa ham rostini so‘ylamoq"likka undash ruhi ustuvordir.

Burdboru malakivashqa itoatdur ish
Sho‘x, shayton sifat eshitsa ne so‘z, bosh chekar.
Uy aro shayxi zamon amrida ermas sichqon,
Teva afsorini uch-to‘rt yashar yosh chekar

Yuqorida berilgan qit’ada esa chidamli, sabr toqatli, tog‘dek viqorli , og‘ir - vazmin insonlarga "farishta "sifatini ,xudbin,tuban va ayyorsifat insonlarga "shayton"metaforik leksemalarini qo‘llash orqali jamiyatdagi insonlarning tipologiyasini ochib beradi .Ayrim insonlar xarakteridan nafratlanib bunday kimsalarni shaytonga qiyos etadi.

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qilur tojvarlar bila dastbo‘s.
Necha tojvardur, kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag‘ma tortar xurus

"Aytilgan so‘z- otilgan o‘q "deganlaridek, Navoiy ham shu naqlga yuqoridagi qit’asida amal qilganligini ko‘rishimiz mumkin.Bu o‘rinda adib so‘z qo‘llashda ehtiyotkor bo‘lmoqlikka ,o‘rinli va mazmunli so‘zlamoqlikka ,ezmalik va bema’ni so‘zlarni aytib el orasida obro‘siz bo‘lib qolmaslikka chaqiradi.O‘rinsiz gapiruvchi ezma odamlarni xo‘rozga o‘xshatish orqali bunday insonlardan alamzada ekanligini ifodalaydi.

Guvohi bo‘lganimizdek, Navoiy qit’alari go‘yoki noroziliklarga yo‘g‘rilgandek ,har birida kim yoki nimadandir alamzada ekandek tuyuladi.Tahlil jarayonida shunga amin bo‘lamizki, bu qit’alarda norozilikni ifodalagan birliklar salbiylikni yuzaga chiqarmasdan bu norozilik ostida ijobiylik ,ezgulik va yaxshilikka chorlash , kelajakka ishonch kabi tushunchalar o‘z aksini topgan. "So‘z isboti bilan go‘zal" degan hikmatga Navoiy qit’alari tadqiqi jarayonida keltirilgan qit’alar so‘ngidagi "narsa otlar "i leksemalarida ko‘rishimiz mumkin.Navoiy asosan o‘z noroziliklarini hayvon timsollari orqali retsipiyentga yetkazishga harakat qiladi.Bunda hayvon timsollari salbiylik kasb etmasdan "odamiylik sifati"dan yiroq kimsalarga bir ko‘zgu vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Qit’alarni o‘qib -o‘rganish jarayonida har bir inson o‘zi uchun manfaatli bo‘lgan jihatlarni olmog‘i,yomon xulq -atvordan yiroq bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami 20 jildlik T.,2003
2. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami G'aroyib us-sig'ar. 3-tom T.,2003
3. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami. Favoyid ul-kibar 6-tom T.,2003